



BOLALAR ADABIYOTINING LINGVISTIK O‘ZIGA XOSLIKHLARI

*Olimjanova Dilafruz Orif qizi
Namangan Davlat Universiteti akademik litseyi o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola bolalar adabiyotining lingvistik o‘ziga xosliklari ko‘rib chiqildi. Bolalar uchun matnlar bolaning yosh xususiyatlarini va til rivojlanish darajasini hisobga olgan holda yozilishi kerak. Yozuvchi va shoirlar bolalarning til rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularga tushunarli bo‘lgan so‘z va iboralarni ishlatalishga harakat qiladilar. Bu ma‘lumotni idrok etish qulayligini va bolaning o‘qish jarayonida faol ishtirok etishini osonlashtiradi.

Kalit so‘zlar: bolalar adabiyoti, lingvistik tahlil, til birliklari, badiiy matn, lingvistik soddalik.

LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF CHILDREN’S LITERATURE

Abstract. Abstract. The article examines the linguistic features of children’s literature. Texts for children should be written taking into account the age characteristics and level of language development of the child. Writers and poets try to use words and phrases that are understandable to children, taking into account the features of their language development. This contributes to the ease of perception of information and the active participation of the child in the reading process.

Keywords: children’s literature, linguistic analysis, language units, literary text, linguistic simplicity.

ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В статье рассматриваются языковые особенности детской литературы. Тексты для детей следует писать с учетом возрастных особенностей и уровня языкового развития ребенка. Писатели и поэты стараются использовать понятные детям слова и фразы, учитывая особенности их языкового развития. Это способствует легкости восприятия информации и активному участию ребенка в процессе чтения.

Ключевые слова: детская литература, лингвистический анализ, языковые единицы, художественный текст, языковая простота.

Kirish. Ijodkor xalq badiiy so‘zning yosh avlod tarbiyasidagi kuchi va jozibasiga qadim zamonlardanoq ishongan. U o‘zining eng noyob asarlarini so‘z mo‘jizasi bilan dunyoga

keltirgan. Hali yozuv nimaligini bilmagan vaqtarda ham odamlar o‘yin-kulgini, surat chizishni bilganlar. Xalqimiz orasidan buyuk iste’dod sohiblari baxshilar, naqqoshlar, sangtarolar va roviylar yetishib chiqqanlar. Ularning asarlarida ko‘hna tarix izlari, xalq termalari, dostonlarida ona allalari va bola o‘yinlarida saqlanib qolgan [3]. Bola dunyoga kelgan kunidan boshlab yoqimli ona allasini eshitadi. Alla bola ongiga ona suti bilan kiradi. Bola ulg‘ayib borgan sari, qo‘sishlar ohangi ham o‘zgarib boradi. Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar bolalarning dunyo qarashini kengaytiradi, bolaning ma‘naviy dunyosini shakllantiradi. Bolalar endi o‘z harakatlarida kattalarga taqlid qiladilar.

Bolalarni yoshligidanoq foydali ishlarga o‘rgatish mashg‘ulotlar, qo‘sishlar, ertaklar orqali amalga oshiriladi. Bola allalagan ona o‘ziga xos poeziya yaratadi. U beshik ustida bugun aytgan so‘zlarini ertaga takrorlamaydi, nimadir qo‘sib boyitibroq aytadi. Shu yusinda allalar, ermaklar, qo‘sishlar, termalar, topishmoqlar yig‘ilib katta bir dengizni hosil qiladi. Bolalar folklori bola uchun ilk tarbiya darsligi, ma‘naviy boyliklarning bitmas tunganmas xazinasidir [2]. Har bir xalq bolalar adabiyotining vujudga kelishi o‘sha xalqning ma‘naviy tafakkuri bilan bog‘liq. Shu tariqa xalqning o‘zi farzandlari uchun maxsus adabiyotni maydonga keltirish tashabbuskori bo‘lib chiqqan.

Rus xalqi orasida jodugar kampir Yaga, yalmog‘iz uchar ilon, TO‘G‘RI va EGRI to‘g‘risidagi ertaklar; turkiy xalqlar orasidagi Shiroq, To‘maris, Guldursun haqidagi afsonalar shuhrat qozongan. Xolbuki, bu ertaklarning yaratilishi eramizdan avalgi 6-4 asrlarga borib taqaladi [1]. Shuningdek, turkiy xalqlar orasida hind va arab folklori namunalari ham keng yoyildi. Masalan: ”Panchatanira”, ”Kalila va Dimna”, ”Romayana”, ”Maxobxarat”, ”Ming Bir Kecha” shular jumlasidandir. Bu holat yangi eraning boshlanishiga to‘g‘ri keladi. Eng qadimiy janrlardan biri bu qo‘sish janridir. Qo‘sishlarning ham eng qadimiysi bu beshik qo‘sishlari hisoblanadi. Bola tug‘ilib tili chiqqunga qadar kattalar ularga Alla aytib beradilar, tarbiyachilar turli mashg‘ulotlar o‘tkazadilar, turmushga zarur bo‘lgan dastlabki hayotiy qoidalarni o‘rgatadilar.

Beshik qo‘sishlari hamma xalqlarda bor. Xususan, ming yillar ilgari ham beshik qo‘sishlari bo‘lgan. M. Qoshg‘ariy, Ibn Sino asarlari orqali juda ko‘p qo‘sishlar yetib kelgan. Ibn Sino allani bola tarbiyasi haqidagi rolini quyidagicha ifodalaydi: ”Bolani mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani beshigini sekin tebratmoq, ikkinchisi uni uxlatish uchun Alla aytishdir. Bu bilan bolaning tanasi va ruhi orom oladi. Xatto, ona bu holatda g‘azab, g‘amginlik, cho‘chishdan holi bo‘lishi kerak” -deydi [3].

Natijalar va muhokama. Bolalar adabiyotining lingvistik o‘ziga xosliklari bu obrazli, emotsiyal, lirizmga boy bo‘lib, u bolalar tafakkuriga, dunyoqarashiga mos keladi. Bolalar auditoriyasining o‘ziga xos xususiyati - bu dunyo haqidagi bilimlarning etishmasligi, kattalar qadriyatları tizimiga o‘xshash bo‘lmagan qadriyatlar tizimi va til bilimining etarli darajada emasligi. Bu xususiyatlar mualiflar tomonidan bolalar yozuvchilarining asarlari lingvistikasida hisobga olinadi [4]. Psixolog va tilshunos olimlar bolalar adabiyoti tilining o‘ziga xos

xususiyatlariga doimo e’tibor berib kelganlar. Bu biz tasvirlarni yaratadigan, his-tuyg‘ularni etkazadigan, o‘rgatadigan va ko‘ngil ochadigan nozik asbobdir:

✓ Oddiylik va qulaylik: Murakkab grammatick tuzilmalar va mavhum atamalarni unuting! Qisqa, ixcham jumlalar bilan yoziladi, masalan, “Sholg‘om”ni olaylik. Qancha qahramonlar borligini eslaysizmi? Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqon. Va har kimning o‘z roli, o‘z so‘zlashuv nitqi mavjud. Oddiy, hamma narsa kabi Muhim: Oddiylik ibtidoiylikni anglatmaydi. Til aniq, ifodali va o‘quvchi yoshiga mos bo‘lishi kerak.

✓ Tasviriylik va ta‘sirchanlik: Bolalarning hayollari shudgorlanmagan dala! Matnni jonlantirish uchun metafora, epithets, taqqoslashlardan foydalaniladi, masalan, Chukovskiyda: “Telefonim jiringladi. - Kim gapiryapti? - Fil!”. Oddiy telefon qo‘ng‘irog‘i kulgili holatga aylanadi. Shaxslashtirish tufayli - jonsiz narsaga insoniy xususiyatlar berilgan Misol: “Quyosh porlab turardi” o‘rniga “Quyosh jilmayib, oltin nurlarini sochardi” deb berilgan [1].

✓ Ritm va qofiya: Bolalar she‘rlar, qo‘shiqlar va sanoqli qofiyalarni yaxshi ko‘radilar! Ritmik matnni eslab qolish va eshitish oson, bu esa bolalar she‘rlarida, qo‘shiqlarida va o‘yinlarida aks etadi. Bolalar shoiri Anvar Obidjon “Suhbat” nomli she‘rida bolalar yaxshi ko‘radigan g‘ozlar to‘g‘risida so‘z yuritadi. Voqeja juda oddiy va soda. O‘zaro suhbatdan ma’lum bo‘ladiki, g‘ozlarning qorni och, ularni boqish kerak. Buni shoir o‘yin vositasida ifodalaydi:

G‘ozlar bir so‘z deysizmi?

Nega patni silaysiz?

G‘a-g‘a, g‘a !

G‘oq-g‘oq,-g‘oq.

Totli suli yeysizmi?

Mendan nima tilaysiz?

Ha-ha,ha!

Boq-boq, boq [5].

Bu xildagi she‘rlar kichkintoylarni mustaqil fikrlashga turmush taassurotlarini to‘plab, ulardan xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Bolalar shoiri Yo‘ldosh Sulaymonning “Qug‘irchoq” she‘rida qug‘irchoqlarni asrab-avaylash, oddiy bir o‘yinchoq vositasida kattalarning mehnatini e’zozlash masalasi o‘rtaga tashlanadi.

Quyosh bilan teng turib,

Qo‘ldan qo‘ymaymiz sira

Ozoda kiyintirib,

Yuqtirmaymiz gard, shira.

Senga taqamiz marjon

Ovunchoqsan bizlarga

Qo‘g‘irchoqjon qo‘g‘irchoq.

Qo‘g‘irchoqsan qizlarga [5].

Bolalar o‘zлari tinglagan asarlari yordamida asta-sekin atrof muhit bilan tanishadilar, ona-yurtga mehr oqibatli bo‘lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o‘rganadilar.

✓ Dialoglar: Jonli, tabiiy dialoglar bolalar kitobining ruhidir! Ular qahramonlarning shaxsiyatini ochib berishga va hikoyani dinamik qilishga yordam beradi, masalan, Astrid Lindgrenning kitoblaridagi dialoglarni olaylik: “Britt-Mari yurakka taskinlik baxsh etadi”, “Uzunpaypoq Peppi”, “Mio, bolajonim Mio”, “Kichkintoy va tomda yashaydigan Karlson” - ularning har bir iborasi o‘z-o‘zidan, dunyonи bolalarcha idrok etish bilan to‘ldirilgan.

✓ Hazil: Bir tomchi hazil o‘qishni hayajonli o‘yinga aylantiradi Nikolay Nosov - bolalar hazilining ustasi! Uning Dunno va uning do‘satlari haqidagi hikoyalari hali ham barcha yoshdagi o‘quvchilarni tabassum qiladi. quyonni, burni esa “cho‘chqadek” edi.

Shuningdek bolalar adabiyoti lingvistik, pedagogik – psixologik xususiyatlariga qarab 3 davrga bo’linadi:

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi

2 yoshdan 7 yogacha



Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi

7 yoshdan 11-12 yogacha



O’rta va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligi

13-17 yogacha

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligining xususiyatlari: Bola yetti yoshga tulguncha atrofdagi hayotiy yangiliklarni tez ilg‘aydigan bo‘lib o‘sma boshlaydi. Bu ishlarni faqat bolani kelajakka tayyorlash deb tushunish kamlik qiladi. Chunki bolalik – inson uchun navqironlik fasli hamdir. Insondagi salbiy va ijobiy fazilatlar xuddi shu davrda shakllana boshlaydi. Darhaqiqat, hamma narsa bolalikdan boshlanadi. Bolalikdagi har qanday taassurot xotiradan o‘chmaydi. Demak, bolani kichkintoyligidan so‘z san’ati bilan sehrlash lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali kitob o‘qishni bilmaydilar. Ular uchun dunyo noma’lum. Ularda ana shu noma’lum narsalarni bilishga intilish, qiziqish kuchli bo‘ladi. Bunda ota-onalar, bog‘cha tarbiyachilari kata rol o‘ynaydilar. Bu yoshdagi bolalar kattalarga taqlid qiladilar. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan kitoblarda hayvonlar, parrandalar, hashoratlar, o‘simliklar bo‘lsalarda ular odamlarday gapirishadi, fikr yuritishadi, kichkintoylarning dunyoqarashlarini shakllanishida muhim rol o‘ynashadi. Sog‘lom bola 7-9 oyligidayoq ayrim tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydilar: qo‘lingni ber, tur, o‘tir va xokozo.

Bir yoshga kirgan bola 10 yaqin so‘zni tushunadi va aytga oladi. Ikki yoshda esa so‘zlar miqdori 300 ga yetadi. Endi u “U nima?”, “Bu Kim?” savollar takrorlay boshlaydi. 3 yoshga to‘lganda bola o‘rgangan so‘zlar miqdori 1200-1300 tani tashkil qiladi. Endi u grammatik qoidalarsiz o‘zi so‘z yasay boshlaydi, so‘zlarni mantiqan aloqaga kiritib fikrini bayon qiladi. Umuman maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi asosan ota-onalar va bog‘cha

tarbiyachilari tomonidan amalga oshiriladi. Hali o‘qish, yozish, chizishni bilmaydigan bola dunyo sirlaridan bexabar bo‘ladilar.

Shunga qaramay, bizni qurshagan olamni tezroq bilib olishga, uni o‘rganishga intiladilar. Bunda ota-onalar, bog‘chalarda esa tarbiyachilar bolalarga yaqindan yordam berishlari, ularga badiiy asarlardan parcha o‘qib berishlari lozim. Bolalarga o‘qib beradigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo‘lishi talab etiladi. Bunday kitoblarining rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo‘lishi maqsadga muvofiq. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tinglaydigan asarlarning ko‘pchiligi ertak, qo’shiq, topishmoq, maqol, tez aytish kabi xalq og‘zaki ijodi asarlari tashkil etadi. Bolalar uchun ijod qiladigan qalam sohibi hayotdagি muhim xarakterli voqealar va hodisalarni badiiy obrazlar orqali bolalar nutqiga xos tilda ularning yoshi, ruhiyati, saviyasiga muvofiq ravishda tasvirlashi lozim. Bu davr yoshidagi bolalarga maqollarni yodlatish, mazmunini so‘zlab berish maqsadga muvofiqdir. Maqollar bolalarni to‘g‘ri mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lunda bayon etishga o‘rgatadi. Ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so‘z boyligini ham oshirishga ko‘maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi:

Ona yurting OMON bo‘lsa,

Rangi –ro‘ying somon bo‘lmas [5].

Dustlik, birodarlik, dushmanga nafrat, ahillik va birdamlik g‘oyalari ham maqollarning asosiy mag‘zini tashkil etadi.

Ko‘kka boqma ko‘pga boq!

Do‘sit so‘zini tashlama,

Tashlab boshing qashlama [5].

Topishmoqlar ham bola taqdirida muhim o‘rin tutadi, bolaning intellektual o‘sishida, poetik va aqliy rivojida asosiy rol o‘ynaydi. Mahmud Qoshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asarida topishmoqlarni “tabzug” deb ataydi. Hozir topishmoq so‘zi topishmachoq, topmachcha, jumboq, cho‘pchak, topar cho‘pchak, top-top cho‘pchak, chiston, matal, top-top matal, muammo, masala, ushuk, lug‘z kabi so‘zlar bilan atalsada asosan bir ma‘noda – ma‘lum bir predmetning, hodisaning belgisi, sifatlari va xususiyatlarini ikkinchi bir narsaga ishora, ramz orqali o‘xshatilishi va uni topish, yechib berish ma‘nolarini anglatadi. Odatda topishmoq, jumboq terminlari – o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyotida, chiston, muammo, muvashshah deb ataladi. Topishmoqlarni quyidagicha xususiyatlarga bo‘lish mumkin: Ba‘zi bir topishmoqlar bir necha predmetlarni o‘z ichiga oladi: “Uzun terak, ichi kovak” (miltiq, qamish, mo‘ri) va xokazo. Ba‘zi topishmoqlar narsaning bajaradigan vazifasiga, harakatiga, uning nimadan yoki qanday ishlanganligiga qarab, shu xususiyatlar asosida yaratilishi mumkin: “Qo‘li yo‘q, oyog‘i yo‘q uy poylar” (qulf).

Tez aytish ham xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos janri hisoblanadi. Tez aytish bolalarda aqliy o‘tkirlikni tarbiyalaydi. Masalan: “O‘ktam ko‘m-ko‘k, ko‘rkam ko‘klam rasmini ko‘p ko‘k qalamda chizmoqchi”, “Zanjir, sarjin, anjir”. Xalq og‘zaki ijodida alleteratsiya hamda muayyan tovushlar takrori asosiga qurilgan tez aytish namunalari she’riy shaklda ham yaratiladi:

Sora allalaydi, Lola arralaydi. Non yasashasanmi, Choli sanashasanmi? [5]. Bolalarni biyron so‘zlashga o‘rgatib, ularga estetik zavq beradigan, fikr va qobiliyatlarini o‘stiradigan, xotiralarini mustahkamlaydigan bunday o‘yinlarning kichkintoylar adabiyotidagi roli va o‘rni katta.

Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi: Bu yoshdagi bolalar psixologlarning gaplariga qaraganda 3600 tacha so‘zdan foydalanan ekanlar. Bolalar 7-9 yoshlarida hayvonlar, qushlar, hashoratlari, o‘simliklar to‘g‘risidagi ertaklarga juda qiziqadilar. Yozuvchilar insonlar bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni ularni gapirtirish orqali amalga oshiradilar. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar asosan tarbiyachilar va ota-onalar yordamida badiiy asarlar bilan tanishsalar, bu yoshdagi bolalar esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va mustaqil o‘zlari o‘qib o‘rganadilar. Bu yoshdagi bolalar ko‘proq tevarak atrofdagi turli voqealarda hodisalarga qiziqadilar. Endi ular mustaqil ravishda sehrli ertak, fantastik ertak, sarguzasht, hikoya va dostonlarni sevib o‘qiydilar. “Zumrad va Qimmat” ertagi, Olloyorning “Fazogir chumoli”, Anvar Obidjonning “Dahshatli Meshpolvon”, Q. Muhammadiyning “Erkinjon oyga chiqibdi” kabi asarlari shu yoshdagi bolalarga mo‘ljallab yozilgan.

O’rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi: Bu yoshdagi bolalar o‘zlari mustaqil ravishda kitob o‘qib, o‘qigan kitoblari qahramonlarining hatti-harakatlarini baholashga o‘rganadilar va ular harakatlarini takrirlaga hozirlanadilar. Bu yoshdagi bolalarga o‘tmish va kelajak haqidagi asarlarni o‘qish tavsiya etiladi. Shiroq, Tumaris, kabi afsonalar bilan bir qatorda Oybek, G.G‘ulom, Zafar Diyor, Q. Muhammadiy, Anvar Obidjon, T. Adashboev va boshqa ijodkorlarning zamonaviy mavzudagi eng yaxshi sara asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Sharq mutafakkirlari Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ahmad Yugnakiy, Al-Buxoriy, Farobi, Beruniy, Yassaviy, Navoiy, Bobur kabilarning pand-nasihat ruhidagi yozilgan asarlari bolalar dunyoqarashini shakllantirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu yoshdagi bolalar kutubxonalardan mustaqil ravishda o‘zlariga ma’qul ertak, doston kitoblarni olib o‘qiy boshlaydilar. Masalan : “Uch og‘a-ini botirlar”, “Egri bilan To‘g‘ri”, “Donishmand qiz” kabilalar.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bu davr bolalari o‘zlari tinglagan asarlari yordamida tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o‘rganadilar. Hozirgi zamon adabiyoti bilan birga o‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy tanqid janri ham tobora o‘sib, rivojlanib kelmoqda. Shuningdek, bolalar adabiyotiga ajratilgan asarlarda lingvistik aspekti asosida millat bolalariga xitob, ilm olishga da‘vat, jaholatning zarari, ota-onaga munosib farzand, Vatanga muhabbat, axloq va tarbiya kabi umumiylar masalalar yetakchilik qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Ахмедова, М. 2024. Образ правителей в контексте русских и узбекских легенд. Зарубежная лингвистика и лингводидактика. 2, 3/S (сен. 2024), 111–116. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss3/S-pp111-116>.

2. Raboyev N. (2024). O‘zbek bolalar adabiyoti va kitobining shakllanishi. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3 (5-3), 233-235. doi: 10.5281/zenodo.11439755
3. Shermuhamedov P, Tursunov J, Safarov O, Egamov X. O‘zbek bolalar adabiyoti.T.2006.
4. Musaeva G. I. (2024). ON THE ORIGIN OF ENGLISH PROVERBS AND SAYINGS. British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 26, 67–73.
5. Turaeva F.A. (2023). On the issue of speech features of children's translated literature. The world of science, culture, education, (6 (73)), 564-566.